



HISTORICITY OF THE REBELLION OF 1916

Sohiba Makhmudova

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: empire, uprising, Jizzakh uprising, minister A.N. Kuropatkin, epic "Jizzakh uprising", historiography.

Received: 27.11.22

Accepted: 29.11.22

Published: 01.12.22

Abstract: In this article, there are opinions about the modern historiography and analysis of the protest uprisings that took place in Turkestan in 1916 as a result of the decree of the Russian Emperor Nicholas II.

1916-YIL QO'ZG'OLONING TARIXSHUNOSLIGI

Sohiba Maxmudova

Magistrant

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: chor imperiyasi, qo'zg'olon, Jizzax qo'zg'oloni, vazir A.N.Kuropatkin, "Jizzax qo'zg'oloni" dostoni, tarixshunoslik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1916-yil rus imperatori Nikolay II ning farmoni natijasida Turkiston bo'ylab sodir bo'lgan norozilik qo'zg'olonlarining zamonaviy tarixshunoslikda o'rganilishi va ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ ВОССТАНИЯ 1916 ГОДА

Сахиба Махмудова

Магистрант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: царская империя, восстание, Джизакское восстание, министр А. Н. Куропаткин, эпос «Джизакское восстание», историография.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о современной историографии и анализе протестных восстаний, произошедших в Туркестане в

KIRISH

Tarixdan ma'lumki 1916-yil sodir bo'lgan qo'zg'olonlar tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan. Biz ushbu ma'lumotlarni tarixshunoslarning asarlaridan, tarixga guvohlik beruvchi ilmiy asoslangan asarlardan, faktlardan bilishimiz mumkin bo'ladi. Keling, avvalo, maqola mavzusini yoritishdan oldin tarixshunoslik haqida qisqacha to'xtalsak, tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona anglashdan, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, tarixchilarni muayyan tarixiy-ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yo'naltirishdan iborat.

Shuningdek, tarixshunoslik fan taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot markazlari tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish kabi vazifalarni ham bajaradi. Tarix, madaniy-ma'naviy an'analar, qadriyatlarning shakli, mazmuni, mohiyati kabilarni tarix orqali onglarga singdirish doimiy dolzarb masala bo'lib qoladi.

ASOSIY QISM

1916-yilgi Turkistondagi qo'zgo'lonlarga to'xtaladigan bo'lsak, 1916-yil 25-iyunda rus imperatori Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida»gi farmoni yara ustiga chiqqan bamisoli chipqonning o'zi bo'ldi. Farmonga binoan Turkiston o'lkasidagi rus bo'lmagan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan jami 250 ming erkak front orqasidagi ishlarga safarbar qilish ko'zda tutilgan edi. Lekin farmonning bunday tarzda Turkiston o'lkasiga mutlaqo tatbiq etib bo'lmashligini tajribali podsho amaldori, sobiq harbiy vazir A.N.Kuropatkin ham tushungan edi. U vazir yordamchisi general Frolovga Rossiyada ikki yildan beri davom etib, nihoyasi ko'rinmagan bu tadbirni, ya'ni urushga 19-43 yoshli aholini safarbar qilish masalasi hal bo'lmagan holda uni chekka o'lkalarga tadbiq etish noo'rinligini ko'rsatgan edi.[1. B. 52]

Farmonga ko'ra Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming Samarqandga 88 ming Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Podshoning o'sha farmoni haqidagi bu shum xabar yashin tezligida butun Turkiston o'lkasiga tarqaldi va azob-uqubatlardan bag'ri qon, alamzada Turkiston mehnatkashlarini larzaga soldi. Chunki mardikorlikka faqat kambag'allarning farzandlarini olish rejalashtirilgan edi. Mardikorlikka olish ro'yxatlarini tuzish volost boshqaruvchilari, oqsoqollar va ellik boshilarga yuklatilgan edi. Ular bundan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar. Mahalliy ma'murlar katta poralar evaziga boylar va amaldor to'ralarning arzandalarini safarbarlikdan qoldirar,

ko'proq kambag'al oilalarning farzandlarini ro'yxatga qo'shib qo'yar edilar. Bundan tashqari Mustamlakachi ma'murlar ijozati bilan boylar va amaldorlar o'z o'g'illari o'rniga mardikorlikka boshqa kishilarni yollashlari ham mumkin edi. Bunday nohaqlik adolatsizlik va firibgarlik bu siz ham biri ikki bo'lmay, nochor hayot kechirayotgan chorasiz xalq ommasining sabr-kosasini toshirib yubordi, ular bosh ko'tarishga majbur bo'ldilar. Ana shu tariqa Turkistonda tarixda Jizzax qo'zg'oloni nomi bilan ma'lum bo'lgan umumxalq qo'zg'oloni sodir bo'ldi. Dastlab qo'zg'olon Samarqand viloyatining Xo'jand shahrida 1916-yil 4-iyulda boshlangan. Bu yerda to'plangan 6-7 minglar chamasi olomon politsiya idorasini qurshab oldi va mardikorlikka bormasliklarini izhor qiladilar. Qo'zg'olonchilarning oldingi saflarida Abdumadaminov, Dadaboy Masharipov, Yahyoxon Qori Olimxonov, Eshonxon Mirza O'rinov kabi xalq vakillari bordilar. Qo'zg'olonchilar safida ayollar va bolalar ham bor edi. Politsiya qo'zg'olonchilarni o'qqa tutdi. Uch kishi o'ldirildi, to'rt kishi yarador qilindi. Bu xabar tez orada butun Samarqand viloyatiga va boshqa hududlarga ham tarqab ketdi. Jumladan 7-iyulda Xo'jand voqeasidan xabar topgan Samarqand viloyatining Dahbed qishlog'ida qo'zg'olon ko'tarildi. Bir necha ming kishi qatnashgan bu qo'zg'olonga mulla Usmon Abdurasulov, Gadoy Abduqodirov, Xolmo'min Xolmurodov, Azizqul Murodov, Muhtor Hafizov singari xalq fidoyilari boshchilik qiladilar. Qo'zg'olonchilar bo'lim boshqaruvchisining mirzasi Qobulovni o'ldirdilar. Qo'zg'olon qatnashchilaridan Usmon Abdurasulov boshchiligida 30 kishi hibsga olindi va turmaga tashlandi. Qo'zg'olonning asosiy markazi Jizzax shahri va uyezdi edi. Qo'zg'olon ko'targan Jizzax xalqi chor ma'murlarining kamsituvchilikdan iborat mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashga otlandilar. Podsho farmoniga ko'ra Jizzax viloyati bo'yicha 10531 kishi mardikorlikka safarbar etilishi kerak edi. Shu jumladan Jizzax shahridan 655 kishi, Zomin volosti bo'yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bog'dod volosti bo'yicha 2311 kishi front orqasidagi ishlarga olinishi ko'rsatildi. Ammo podshoning safarbar bo'yisha tadbirlari mehnatkash xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi, aksincha ommaning qahrug'azabi va nafrati kuchayib ommaviy qo'zg'olonga aylanib ketdi. Bu qo'zg'olon davomida o'zining butun qalbi-vujudini mehnatkash xalq baxtiga bahshida etgan haqiqiy qahramonlar yetishib chiqdilar. Nazirxo'ja Abdusalomov, Mulla Mahamad Rahim, Ziyoqori Abdullaev, MamaSharif Husanov, M.O'rinxo'jaev, Musabek To'rabekov, Abdulla Oshilov va boshqalar shular jumlasidandir. Sho'rolar hokimiyati yillarida laganbardor tarixchilar Jizzax qo'zg'olonining asl mohiyatini soxtalashtirib, buzib talqin qiladilar va unga diniy tus berdilar.[7. B. 81].

Bu qo'zg'olonning milliy-ozodlik karakterini xaspo'shladilar. Holbuki Jizzax qo'zg'olonini qon bilan bostirgan chor Rossiyasi zobitlarining o'zlari bu qo'zg'olonni Rossiya hukumatiga qarshi qaratilganligini o'z vaqtida ochiq-oydin tan olib aytganlar. Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.Likoshin bergan axborotda jumladan quyidagilarni o'qiymiz: "Norozilik harakati ko'tarila bordi, goh u yerda goh bu yerda ur-yiqitlar va o'ldirishlar sodir bo'ldi. Mahalliy amaldorlarning

tushuntirishlari va ogohlantirishlari xalqqa ta'sir qilmadi. Ma'murlarning so'zlariga xalqning mutlaqo ishonchi qolmadi, nihoyat, bu harakat Rossiya hukumatiga qarshi ochiq qo'zg'olon tusini oldi».

Chor Rossiyasining Jizzax qo'zg'olonining milliy mustamlakachilik zulmiga qarshi umumxalq qo'zg'oloni ekanligini tasdiqlaydigan adolatli qarashlari 1916-yildagi boshqa rasmiy hujjatlarda ham tan olingan. Jumladan, chor hukumat tomonidan qo'zg'olonchilarni jazolash uchun tuzilgan favqulodda sud aybnomalarining birida Jizzax volostidagi qo'zg'olon xalq harakati ekanligi e'tirof etilgan. Ana shu aybnomada bayon qilinganidek 12-13 iyul kunlari Jizzax uyezdi Yom volosti aholisi qo'zg'alib, otliq va yayov bo'lib, mustamlaka ma'murlari, volost boshqaruvchisi va oqsoqollarga qarshi shiddatli hujum boshladi. Mustamlakachi va mahalliy ma'murlarning o'zaro til biriktirib xalq ommasiga nisbatan ishlatgan zo'ravonliq do'q-po'pisa siyosati mehnatkashlarning nafrat va nadomatini yanada battar oshirdi.[5. B. 62] Mehnatkash xalq milliy zulm va zo'rlikka qarshi yoppasiga qo'zg'olonga ko'tarildi.

G'azabi to'lib toshgan xalqning erk uchun kurashi o'z qahramonlarini yaratdi. O'zbek shoiri Fozil Yo'ldosh(1872-1955) ning "Jizzax qo'zg'oloni" dostonida bu qo'zg'olon manzarasini yorqin bo'yoqlarda aks ettirgan. Fozil Yo'ldosh o'z dostonini yaratishdan oldin qo'zg'olonni bevosita qatnashchilari Abdulla Oshilov, Mamasharif Husainov, Shodi Ashirmatov, Mavlon Kenjaev, Urdush Muqimov va boshqalar bilan shaxsan uchrashgan va ular bilan suhbatlar olib borgan edi. Dostondagi Toir cho'loq, Qurbon Og'ajon polvon va boshqalar timsolida xalq qo'zg'oloni qahramonlari va ularning jasratlari ifodalangan. Shoir yuksak badiiy mahorat bilan xalq ommasining chorizmga va mahalliy ma'murlarga, boylar va amaldor-to'ralarga qahr-g'azabi ortib borib, ochiq qo'zg'olonga aylanib ketganligini yorqin satrlarda ifoda etadi:

Podshoga qarshi boraylik,

Podsho kimdir, biz bilmaymiz,

Podsho yordamchisin topib,

Urra deb ot qo'yayliq

Yo olaylik yo o'laylik

Sira qaytmanglar haloyiq,

Mehnatkashsan zulm o'tdi,

Suyaklar o'rtanib ketdi.

Qattiq zulm o'tgandan so'ng

Shuncha xalq qo'zg'olon qibdi. [1. B.45].

Yuqoridagi misralardan anglashimiz mumkin bo'ladiki rus imperatori Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun

zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida»gi farmoni natijasida Turkiston bo'ylab katta qo'zg'olonlar sodir bo'lgan.

Biz yuqorida birgina Jizzax qo'zg'oloniga oid bo'lgan tarixshunoslikka to'xtaldik, lekin 1916-yil qo'zg'oloniga xorijiy olimlarning qarashlari qanday bo'lgan degan savollar tug'iladi? Ingliz tarixshunosligida 1916 yil qo'zg'oloni haqidagi qarashlar va tasavvurlarning shakllanishi 50-yillardan boshlanadi. Xorijiy tarixshunoslikni har bir asar yoki tadqiqot misolida emas ulardagi asosiy xulosalar, umumiy yoki munozarali qarashlar, manbaviy asoslarini aniqlash asosida tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida atyib o'tish mumkinki, xorijiy tarixshunoslikda qo'zg'olon sabablari sifatida Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik zulmi va istibdodi alohida e'tirof etiladi.

Ingliz tarixshunosligida bu voqealar haqida ayni bir paytda quyidagicha mulohazalar ilgari suriladi:

1. 1916-yil qo'zg'oloni Rossiya zulmi va hukmronligiga qarshi kurash edi;
2. 1916-yil qo'zg'oloni musulmonlarnig kofirlarga, ya'ni g'ayridinlarga qarshi azaldan olib brogan diniy kurashlarning bir ko'rinishi edi;
3. 1916-yil qo'zg'oloni nafaqat Rossiyaga, balki Turkistondagi barcha ruslarga qarshi kurash, ya'ni milliy kurash edi [4. B.110].

Shuni alohida takidlash kerakki, bunday xulosalarni ilgari surgan xorijiy tadqiqotchilar uchun sovet adabiyotlari asosiy manba bo'lib hisoblangan va natijada esa mahalliy shart-sharoit, xususitaylar va real voqealardan bexabarlik mana shunday xulosalarga olib kelgan.

Muhajir vatandoshlar, ya'ni voqealar guvohi bo'lgan, haqiqiy ahvoldan xabardor bo'lgan mualliflar ijodida esa 1916-yil voqealari Rossiyaning hukmronligiga qarshi olib borilgan milliy harakat sifatida e'torf e'tiladi, Jizzax voqealari buning yaqqol ifodasi ekanligi alohida ta'kidlanadi, qo'zg'olonning mohiyati, maqsadlari to'g'ri baholanadi. Ular o'z tadqiqotlarida cheklangan doiradagi voqealarning tafsilotlariga emas, keng va chuqur mushohada asosida muhim va yirik g'alayonlar, aniq tarixiy faktlarga asoslanib, mahalliy omillar, xususiyatlarni e'tiborda tutib to'g'ri nazariy xulosalar qilishga urinadilar. Chunonchi Boymirza Xayit asarlarida qo'zg'olon to'satdan boshlanib ketgani, unda butun Turkiston miqyosida birlashtiruvchi kuch yoki raxbar bo'lmagani alohida ta'kidlanib, bu mag'lubiyat sabablaridan biri bo'lgani ko'rsatib o'tiladi. [10. B.184].

Xorijiy tarixshunoslikda qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrash sabablari sifatida uning uyushmaganligi boshqaruvchisi, birlashtiruvchi kuch yoki raxbar bo'lmaganidan tashqari qo'zg'olonchilarning qurollanmagani, rus qo'shinlarining harbiy jihatdan bir necha bor ustunligi ham ko'rsatib o'tiladi. Qo'zg'olon saboqlari sifatida kurash tajribasi, birlashish va qurollanish zaruriyati anglab yetilgani va keyinchalik, sovet hokimiyatiga qarshi kurashlarda bunga alohida e'tibor berilgani ta'kidlanadi.

Bu haqqoniy e'tirof va xulosalar sovet tarixshunosligidagi g'oyalashtirilgan qarashlarga mutlaqo zid bo'lib, kommunistik mafkura aqidaparastlari ularni tan olish yoki bu haqida bahslashish u yoqda tursin, sovet xalqi, xususan O'rta Osiyo xalqiga yetib kelishini ham istamas edilar, shu sababli xorijiy adabiyotlar tanqidiga maqolalarda bu haqida so'z ham bormaydi, aksincha xorijiy tarixshunoslik 1916- yil voqealarini mutlaqo buzib talqin qilganlikda ayblanadi. [9. B. 26-29].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1916-yil qo'zg'olonining xorijiy tarixshunoslikdagi o'rni juda yuqori bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, qo'zg'olon mohiyati, sabablari haqidagi xolisona xulosalari qayd etilgan. Sovet tarixshunosligidan farqli ravishda, qo'zg'olonning Turkistondagi Rossiya hukmronligiga qarshi qaratilgani e'tirof etilgan, shuningdek qo'zg'olonning umumxalq va ommaviy kurash tusini olgani ta'kidlangan.

Yuqorida to'xtalgan voqealarimiz natijasida 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi arafasida Turkistonda murakkab bir ijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga kelganligidan dalolat beradi. Shuningdek, imperatorning ushbu xatosida tarixshunoslik shuni yoritadiki, 1917-yil fevralida Rossiyada inqilob yuz berdi, podsholik Rossiyasi quladi. Butun mamlakat bo'ylab hurriyat, ozodlik keng quloq yoydi. Jadidchi shoir Abduldamid Cho'lpon bu inqilobni Fransiyadagi XVIII asrdagi buyuk inqilobga tenglashtirdi. Ayni shu fevral inqilobidan keyin O'rta Osiyodagi jadidchilik harakatida, jadidlar faoliyatida tamomila yangi davr boshlandi, yangi sahifa ochildi. Jadidlarning o'z maqsad va istaklarining ro'yobga chiqishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy vaziyat, sharoit yuzaga keldi.[5. B 67]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu ma'lumotlarni biz tarixshunoslarning ilmiy ko'rsatmalarga asoslangan dalillar asosida yoritishga harakat qildik. Misol uchun "O'zbekistonning yangi tarixi" asarining birinchi jildida, Ibrohim Yorqinning Anqara shahrida chop etilgan Turk madaniyati jurnalida "Turkistonda 1916-yil isyoni" nomli maqolalaridan foydalandik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. «O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» (412-424-betlar);
2. H.Ziyoyev «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash» Toshkent, «Sharq», 1998, 400-431-betlar;
3. Edward Denis Sokol. The revolt of 1916 in Russian Central Asia. Baltimore.1954. Charles Hostler. Turkism and the Starts. London.1957. A. Pirce. Russian Central Asia.
4. D.Ziyoyeva "Turkiston milliy ozodlik xarakati" (Mustabid tuzumga qarshi 1916 yil va 1918-1924 yillardagi xalq kurashlari tarixshunosligi) T.: G'afur G'ulom. 2000. B.110.
5. Xaydarov X. "Jizzax tarixidan lavxalar", 34-bet.

6. Ibrohim Yorqin. “Turkistonda 1916 yil isyoni” Turk madaniyati jurnali. Anqara, D968, 68-son.
7. Shamsutdinov Rustambek. Tarixiy merosimizga bir nazar. Andijon, «Meros», 1994.13-bet.
8. Mustafó Cho‘qay o‘g‘li. Kerenskiy va Turkiston milliy harakati. «Yosh Turkiston», Berlin-Parij.. 1930, 9—10-sonlar 22-bet.историе
9. Юсупов Э., Турсунов Х. К истории востания 1916 года // Общественные науки в Узбекистане .1981 .№4 Б.26 -29.
10. 184 В. Hayit. Turkestan im XX Jahrhundert. p.206.